

## SOVETLAR DAVRIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI VA MUAMMOLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

Murodov Halim Salimovich

Buxoro davlat pedagogika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası, PhD

<https://orcid.org/0000-0001-5564-8531>

*Annotatsiya: Mazkur maqolada Sovet davrida ya'ni, o'tgan asrning 50-90-yillarigacha bo'lgan turizm rivojlanishida xususiy sektorning faoliyatiga chek qo'yilganligi, sohada davlat monopoliyasi o'rnatilganligi, butun tizimda raqobat muhitining yo'qligi, turistik industriyadagi jahonda ro'y berayotgan yangiliklar va diversifikatsiya jarayonlaridan Ittifoq turizmining uzilib qolganligi, turistik xizmatlar sifatining pastligi, AQSH boshchiligidagi G'arb davlatlari bilan "Sovuq urush" davridagi raqobati, Sovet Ittifoqida turizmdan dunyoning rivojlangan davlatlarida bo'lgani kabi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yuksaltirishga emas, balki soxta sotsializm yutuqlarini targ'ib qilish quroli sifatida foydalanilishi kabi to'siqlar va jihatlar atroflicha tahlil etilgan. Xulosa qismida esa O'zbekiston turizm sohasi yillar davomida olib borilgan noto'g'ri siyosat tufayli chuqur inqirozga yuz tutganligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. O'zbekistonda sovetlar davrida turizm sohasi yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi masalalari, shuningdek ushbu davrda turizmning ijtimoiy – iqtisodiy tashkilot sifatida mustaqil faoliyat ko'rsatmaganligi, turizmdagi muammolar va kamchiliklar shu bilan birga sohadagi ijobiy o'zgarishlar ham faktlar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, O'zbekistonda yangi joylashtirish vositalari va turizm infratuzilmasining barpo etilishi, asosan tariixy turizmni rivojlanishiga e'tibor qaratilib, yangi turyo'nalish hamda turistik xizmatlar yo'lga qo'yilishiga ahamiyat qaratilmaganligi borasidagi aniq fakt va dalillar mushohada qilingan.*

*Kalit so'zlar: turizm, meros, gid, ekskursiya, viza, mehmonxona, Zarafshon, Varaxsha, pullik xizmat, sanatoriy-kurort.*

## DEVELOPMENT AND PROBLEMS OF TOURISM IN THE SOVIET PERIOD (BASED ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN)

Muradov Halim Salimovich

Bukhara State Pedagogical Institute, Department of «Social Sciences», PhD

*Abstract: In this article, in Soviet times, that is, between the 50s and 90s of the last century, the private sector was limited in the development of tourism, a state monopoly was established in this area, and there was no competitive environment in the entire system. , and peace in the tourism industry From innovation and diversification processes, disunity of tourism in the Union, low quality of tourism services, competition with Western countries led by the United States during the Cold War, tourism to the Soviet Union is not aimed at improving socio-economic life, as in the developed countries of the world, but the false obstacles and aspects such as its use as a tool to promote the achievements of socialism are analyzed in detail. In the final part, it is scientifically substantiated that the tourism industry of Uzbekistan is facing a deep crisis due to incorrect policies pursued over many years. Issues of the formation and development of the tourism industry in Uzbekistan during the Soviet period, as well as the lack of independent activity of tourism as a socio-economic organization during this period, problems and shortcomings in the field of tourism, as well as positive changes in the industry, are analyzed on the basis of facts. There were also clear facts and evidence regarding the creation of new accommodation facilities and tourism infrastructure in Uzbekistan, focusing mainly on the development of historical tourism and not paying attention to the creation of new routes and tourism services.*

*Key words: tourism, heritage, guide, excursion, visa, hotel, Zarafshan, Varakhsha, paid service, sanatorium.*

## РАЗВИТИЕ И ПРОБЛЕМЫ ТУРИЗМА В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА)

Мурадов Халим Салимович

*Бухарский государственный педагогический институт, Кафедра «Социальные науки», Ph.D.*

*Аннотация: В данной статье в советское время, т.е. между 50-ми и 90-ми годами прошлого века, частный сектор был ограничен в развитии туризма, в этой сфере установилась государственная монополия, во всей системе отсутствовала конкурентная среда, и мир в туристической отрасли от инноваций и процессов диверсификации, разобщенности туризма Союза, низкого качества туристических услуг, конкуренции со странами Запада во главе с США во время «холодной войны», туризма в Советский Союз не нацелен на улучшение социально-экономической жизни, как в развитых странах мира, но подробно анализируются ложные препятствия и такие аспекты, как его использование в качестве инструмента продвижения достижений социализма. В заключительной части научно обосновано, что туристическая отрасль Узбекистана столкнулась с глубоким кризисом из-за неправильной политики, проводившейся на протяжении многих лет. Вопросы становления и развития туристической отрасли в Узбекистане в советский период, а также отсутствие самостоятельной деятельности туризма как социально-экономической организации в этот период, проблемы и недостатки в сфере туризма, а также положительные изменения в отрасли, анализируются на основе фактов. Также наблюдались явные факты и доказательства относительно создания новых средств размещения и туристической инфраструктуры в Узбекистане, ориентируясь в основном на развитие исторического туризма и не уделяя внимания созданию новых маршрутов и туристических услуг.*

*Ключевые слова: туризм, наследие, гид, экскурсия, виза, гостиница, Зарафшан, Варахша, платная услуга, санаторий.*

Kirish. Turizm sohasining rivojlanishi tarixi albatta turizm soʻzining kelib chiqish, maʼnosi va qanday soha yoki harakat ekanligini bilishni taqazo etadi. Turizm (fransuzcha: tour — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri sifatida tavsif etiladi. 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm toʻgʻrisida” qonunning 3-moddasida turizm — jismoniy shaxsning vaqtincha boʻlish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat bilan shugʻullanmagan holda doimiy yashash joyidan joʻnab ketishi (sayohat qilishi) deb taʼrif berilgan[1]. YUNVTO (JST)[2] ning turistik atamalar lugʻatida turizm - bu ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisa boʻlib, u odamlarning shaxsiy yoki biznes / kasbiy maqsadlarda odatdagi muhitdan tashqaridagi mamlakatlarga yoki joylarga koʻchishi bilan bogʻliq. Bu odamlar tashrif buyuruvchilar (turistlar yoki ekskursionistlar, rezidentlar yoki norezidentlar boʻlishi mumkin) deb ataladi va turizm ularning faoliyati bilan bogʻliq boʻlib, ularning baʼzilari sayohat xarajatlarini oʻz ichiga oladi[3]. Sayohat va turizm sohasining jadal rivojlanishi taʼsirida 2019-yilda dunyo boʻylab yaratilgan barcha yangi ish oʻrinlarining toʻrtidan bir qismini, barcha ish oʻrinlarining 10,6 foizini (334 million) va global YaIMning 10,4 foizini (9,2 trillion AQSh dollari) hamda ushbu yilda xalqaro tashrif buyuruvchilarning xarajatlari 1,7 trillion AQSh dollarini tashkil etdi (eksport umumiy hajmining 6,8 foizi, global xizmatlar eksportining 27,4 foizi)[4]. Turizm insoniyat paydo boʻlgan davrdan boshlab, u bilan birga hamqadam rivojlanayotgan dunyoqarash va tasavvurlarini oʻzgarishi hamda kengayishiga ijobiy xizmat qilayotgan sohadir (harakatdir). Turizm sohasi dunyo davlatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda hal qiluvchi omilga aylanib borayotgan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biridir. Turizm rivojlanishi bilan butun dunyo davlatlari va xalqlarining siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy – maʼrifiy aloqalarining kuchayishi kuzatilib, bu esa jahonda siyosiy aloqalarning kengayib, tinchlik va xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Oʻzbekistonda turizm sohasining sovet davridagi holati va rivoji masalalari quyidagi olimlarning tadqiqotlarda kengroq yoritilgan. Bu kabi mahalliy tadqiqot ishlariga tarixchilardan B.Xalmuratov, G.Egamberdiyeva, M.Mansurov, O.Abdimoʻminov va A.Mullayev, B.Boltayev, A.Isadjanov va I.Gulmuratov, S.Selimanova va S.Tursunovalarning izlanishlarini haamda iqtisodiyot sohasi mutaxassislaridan M. Aliyeva, A.Tulyaganova, A.Eshtoyev, Z.Sattarova, N.Ibragimov, M.Boltabayev, I.Tuxliyev, B.Safarov, S.Abduxamidovlarning ilmiy tadqiqotlarini kiritish mumkin. MDH davlatlarida olib borilgan tadqiqotlarga tarixchilardan M.Sokolova, I.Orlov va A.Popov, Y.Suprunenko, A.Martinov, Ye.Lelina va A.Terexanova, I.Barchukovlarning, iqtisodchilardan A.Aleksandrova,

Sushinskaya, L.Yefanova va V.Polyakova, V.Gordin va L.Xoreva, A.Baisakalava va V.Garkavenko, A.Pala kabilarning ishlarini hamda xorijiy tadqiqotchilardan G.Sazak, K.Kantarsi, M.Uysal, V.Magnini, V.Benzon, S.Horaklarning izlanishlari ham muhim o`rin tutadi. Ushbu izlanuvchilar olib borgan tadqiqot natijalarida sovet davridagi turizm va sayyohlik sohasi rivoji, uning tashkiliy jihatlari, sohaning mafkura xizmatchisi sifatida faoliyat ko`rsatganligi, milliy turizmning iqtisodiy ahamiyati kabi muhim jihatlarga e`tibor berilmaganligi, turizm infratuzilmasini takomillashtirish va rivojlantirishning strategik yo`nalishlari belgilanmaganligi, turistlarga sifatli xizmat ko`rsatish turlarini ishlab chiqilmaganligi bilan bog`liq sohadagi muammolar va ularning yechimlari borasidagi fikr-mulohazalari keltirilgan.

Ushbu mualliflar O`zbekiston turizmi va uning asosiy sayyohlik o`choqlaridagi tarixiy markazlar va ulardagi muqaddas qadamjolar, moddiy madaniy meros obyektlari to`g`risida ham mushohadalar bildirib, mintaqa turizmidagi kamchilik va muammolarning sababi hamda yechimi bilan bog`liq ayrim masalalarga ham bir qadar jiddiy e`tibor qaratishgan.

Muhokama. XX asrda sobiq sovet mustamlakachiligi davrida esa Markaziy Osiyo jumladan, O`zbekiston turizmi jahon turizmi rivojidan orqada qoldi. Bu jarayonning asosiy sababi birinchidan, O`zbekiston davlati 1925-yildan 1991-yilgacha sobiq SSSR davlati tarkibida bo`lib, bu davrda amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy siyosat avvalambor metropoliya manfaatlariga xizmat qilishi zarurligi ustuvor bo`lib, ikkinchidan sobiq SSSR hududi ya`ni 15 ta davlat g`oyaviy jihatdan to`liq nazoratga olinishi, uchinchidan esa, mustaqil xalqaro aloqalarning yo`lga qo`yilmaganligida edi. Tadqiq qilinayotgan mavzuni to`liq tahlil qilish uchun sobiq SSSR dagi turizm sohasi rivojiga ham bir qadar e`tibor qaratamiz. Dastlab Sovet turizmi tashkiliy markazga ega bo`lmaganligi uchun sohaga turli organ va tashkilotlar jalb qilingan. Bu tashkilotlarning barchasi turizmning mohiyati, vazifalari va maqsadlari haqida umumiy tushunchaga ega emas edi. Ba`zilar turizmni o`quv ekskursiyalari, boshqalari - jismoniy tarbiyaning ajralmas elementi sifatida, uchinchilari - dam olish paytida dam olish yurishlari, uchinchilari - o`z ona yurtlari bilan tanishish deb hisoblashgan. 1926-yilda Xalq ta`lim komissarligi qoshida Birlashgan ekskursiya byurosi tuzildi. Birlashgan ekskursiya byurosi 1928-yil oxirida tugatilib, "Sovet turisti" ("Sovtur") aktsiyadorlik jamiyati tuzildi. Bu jamiyat turizm sohasidagi xususiy sayyohlik idoralari va byurolarini siqib chiqardi[5]. 1928-yilda sovet sayyohlarining birinchi konferentsiyasi bo`lib o`tdi va "Sovet sayyohi" qo`shma kompaniyasi, 1929-yilda esa xorijiy turizm bo`yicha monopoliya o`rnatgan "Inturist" o`z faoliyatini boshladi[6]. "Inturist" chet ellik sayohatchilar uchun Ittifoqni turistik maskanga aylantirish yo`lida qiyinchilik bilan bo`lsada samarali faoliyat yuritdi. Jumladan xorijiy sayyohlarga xizmat ko`rsatish malaka, ko`nikma hamda qoidalari shakllantirildi. Ichki turizm sohasida esa, 1930-yilda barcha ichki sayyohlik tashkilotlari bir tuzilmaga - Umumiy Ittifoq Proletar Turizm va Ekskursiyalar Ixtiyoriy Jamiyatiga (OPTE) birlashtirildi. 1936-yilda OPTE kasaba uyushmalari rahbarligida faoliyat yuritadigan Turistik Ekskursiyalar Byurosiga (BTE) aylantirildi. 1958-yilda "Sputnik" xalqaro yoshlar turizmi tashkiloti tuzilib, u xalqaro yoshlar harakati bilan aloqalar o`rnatishi va ular bilan yosh turistlar almashinuvini tashkil etish vazifasi yuklatildi. Ittifoqda turizmning barcha turlari bo`yicha targ`bot – tashviqot ishlarini yuqori saviyada olib boorish, tarixiy, madaniy va hordiq chiqarish joylari bilan aholi va sayohatchilarni tanishtirish uchun 1966-yilda "Turist" jurnali chiqa boshlagan[7].

1960-yillarda SSSRda turizmning beshta yo`nalishida faoliyat yuritgan bular: 1. Ichki turizm – kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan. 2. Inturizm – tashqi turizm. 3. Yoshlar turizmi. 4. Harbiy turizm. 5. Maktab turizmi kabilardan iborat bo`lib, sohadagi targ`ibot reklama faoliyatini xo`jalik ya`ni o`z-o`zini ta`minlash asosida 1971-yildan faoliyati yo`lga qo`yilgan "Turist" tashkiloti olib borgan[8]. Sobiq Ittifoqda 1970 – 1980-yillarga kelib, ichki va tashqi turizm o`shirish ko`rsatkichlari namoyon bo`lib, albatta bunda asosan xorijiy turistlarning tarixiy – madaniy yodgorliklarga qiziqishi kata ahamiyat kasb etdi. Bu davrda Ittifoqda ichki turizmni tashkil etishga mas`ul kasaba uyushmalari tomonidan 13000 ta turistik – ekskursiya yo`nalishi va tashqi turizm uchun esa Inturist tashkiloti 500 dan ortiq turistik marshrutlarni taklif qilgan. Jumladan chet ellik sayyohlarga xizmat ko`rsatish uchun 1985-yilda 55 ming o`rinli 100 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglar xizmat ko`rsatgan. Chet ellik sayyohlarga SSSRning 150 ta shaharlaridan o`tgan 500 ga yaqin turli xil ekskursiyalar va sayohatlar taklif qilindi[9]. Turizm rivoji borasidagi yagona davlat siyosati yuritilmaganligi natijasi o`laroq 1922 – 1985-yillarda turistlarni ro`yxatga olish amalga oshirilmagan. Shuningdek 1985-yilgacha Ittifoq republikalari fuqarolarining sayohatlari borasida ham hech qanday statistika[10] yuritilmagan.

O`tgan asrning 50-90-yillarigacha bo`lgan sobiq Ittifoq turizmi rivojlanishidagi to`siqlarning



birinchisi turizm sohasida xususiy sektorning faoliyatiga chek qo'yilganli va sohada davlat monopoliyasi o'rnatilganligi hamda raqobat muhitining yo'qligi, ikkinchidan esa turistik industriyadagi jahonda ro'y berayotgan yangiliklar va diversifikatsiya jarayonlaridan Ittifoq turizmining uzilib qolganligi, hamda turistik xizmatlar sifatining pastligi, uchinchidan AQSH boshchiligidagi G'arb davlatlari bilan "Sovuq urush" davridagi raqobati, to'rtinchidan esa Sovet Ittifoqida turizmdan dunyoning rivojlangan davlatlarida bo'lgani kabi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yuksaltirishga emas, balki soxta sotsializm yutuqlarini targ'ib qilish quroli sifatida foydalanishida edi. Bu borada turizmning iqtisodiy faktori ikkinchi darajaga surib qo'yilgan.

Ayni vaqtda Sovet Ittifoqining chekka o'lkasi bo'lgan O'zbekistonda esa mustaqillik arafasida turizm sohasining imkoniyatlari yuqori bo'lsada, ammo samarali foydalanilmadi. 1950–1990-yillargacha bo'lgan davrda sovet turizmidagi kamchiliklar Ittifoq respublikalarida jumladan O'zbekiston va uning turistik viloyatlarida esa yanada ko'proq darajada namoyon bo'lgan. Jumladan turistlarga shahar bo'ylab mustaqil harakat qilganda taksi haydovchilarning insofsizligi va yo'l kiraning yuqori narxlari, metro bekatlaridagi asosiy kamchiligi sifatida hojatxonaning mavjud emasligi (hozir ham yo'q), yengil nonushtaga sharoit yo'qligi, hammomlarning yetarli emasligi, issiq suv ta'minotidagi uzilishlar, mehmonxonalarda turistik menyu yo'qligi, mehmonxonalarda mavhum sabablarga ko'ra sayyohlarning pasportlari vaqtincha olib qo'yilishi va sanitariya-gigiyena vositalarining yo'qligi, liftlarning tez – tez ishdan chiqishi, temir yo'l transportida servis xizmatining to'la shakllanmaganligi va sifati pastligi, "Inturist" tomonidan mehmonxonalarda xona va aviachiptalarni bron qilish majburiyatlari tez-tez buzilishi, ekskursiya dasturlarida mahalliy aholining kundalik hayoti to'g'risida ma'lumotlar yo'qligi, haqiqiy kundalik hayotni yashirish orqali soxta bo'rtirilgan sovet hayotini namuna qilishda turizm mafkuralar kurashi vositasiga aylantirilishi kabi kamchilik va muammolar sovetlar turizmining doimiy yo'ldoshiga aylandi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo respublikalarida xorijlik sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish borasida katta qiyinchiliklar yuzaga keldi. Shunday qilib, 1961-yilda Buxorodan kelgan "Inturist" kompaniyasi vakillari xorijliklarni issiq suv bilan ta'minlashning iloji yo'qligi, shaharda kanalizatsiya yo'qligi, oqova suvlarni olib tashlash uchun maxsus mashinalar yo'qligi haqida shikoyat qilganlar [11]. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak 1950 – 1960-yillarda O'zbekiston va uning tarixiy turistik shaharlarida turistik infratuzilma obyektlarini barpo etish Ittifoqning markaziy shaharlaridan ko'ra ancha orqada ekanligi hamda bu borada chora – tadbirlar tizimli ravishda yo'lga qo'yilmaganligidan dalolat beradi. Bu esa sayyohlarda O'zbekiston yoki Markaziy Osiyodagi turmahsulot va turistik maskanlarining jozibadorligini osdhirishga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Butunittifoq Kasaba uyushmalari Markaziy Kengashi Prezidiumining 1962-yil 20 iyuldagi "Turizmni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni va Turizm bo'yicha Markaziy Kengashning tashkil etilishi nafaqat turizmni rivojlantirishning tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirishni, balki uning hududiy tashkil etilishini ham rivojlantirish belgilab berdi. Shu yildan boshlab, ushbu farmonga ko'ra sport tashkilotlari boshqarib kelgan havaskor turizm to'liq kasaba uyushmalari ixtiyoriga o'tkazilib, shaharlarda havaskor turizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari belgilab berildi. Klublardagi ish ixtiyoriylik asosida sayyohlarning keng ijodiy tashabbusi va havaskorlik faoliyati asosida qurilgan. SSSR sport jamiyatlari va tashkilotlari ittifoqi markaziy kengashi Ittifoqning tegishli kengashlari huzuridagi turizm federatsiyalari va seksiyalarini tugatdi [12]. Havaskor turizm o'lkani o'rganish, yoshlarni jismoniy chiniqtirish orqali harbiy ishga ya'ni vatanparvarlikka tayyorlash, sog'lomlashtirish bo'yicha turistik sayohatlar, tog' turizmiga chiqish, piyoda yurish kabi tadbirlarini 1962-yil 13 sentyabrda tashkil etilgan O'zbekiston turizm soveti va 9 ta viloyatda faoliyat olib borgan turizm sovetlari amalga oshirdilar. 1962-yil Samarqandda respublika turistlarining birinchi slyoti – yig'ilishi bo'lib o'tib, shu yili Butunittifoq turistlari slyotida O'zbekiston vakillari birinchi o'rinni egalladilar [13]. O'zbekistonda turizm sohasi kasaba uyushma tashkiloti boshqaruviga o'tib, uning bosh organi turizm va ekskursiyalar bo'yicha Kengashi edi.

O'zbekistonda havaskor turizm viloyat va shahar turistik klublari faoliyati asosida rivojlandi. Bu davrda O'zbekistonda Ittifoqda bo'lgani kabi turizm va ekskursiyalar sohasi kasaba uyushmalari boshqaruvida bo'lsada, lekin jamiyatdagi turli xil tashkilotlar o'z sohasi bo'yicha turizm, ekskursiyalar va dam olishni tashkil etishda qatnashgan. Bularga mazkur soha bilan bog'liq davlat va jamoat tashkilotlari, turli xil sohaviy boshqarmalar va birlashmalar kiradi. 1970 – 1980-yillarda O'zbekistonda yangi mehmonxonalar, turistik transport tashkilotlari, turistik kompleks va sog'lomlashtirish lagerlari qurilib ishga tushirildi. Natijada O'zbekistondagi turistik bazalar va ularda dam oluvchilar soni ko'payib, bu esa turizm rivojidagi ijobiy tendensiyaning ko'zga tashlanishiga omil bo'ldi. Jumladan quyidagi turizm

statistikasi ma'lumoti (1- jadval[14]) ham buni tasdiqlaydi.

Joylashtirish vositalari va ularning sig'imi	1970 yil	1975 yil	1976 yil	1977 yil	1978 yil	1979 yil	1980 yil	1984 yil
1.Turistik bazalar soni	8	22	20	22	23	27	30	36
2.O`rinlar soni(ming)	1,4	3,6	3,6	3,7	4,6	5,7	6,1	8,2
3.Dam oluvchilar soni (ming kishi)	74,5	198,4	237,3	326,7	395,7	475,6	510,0	621,0

1970 – 1980 yillarda turizmning 1.Piyoda yurish turizmi 2.Tog` turizmi 3.Suv turizmi 4.Avtoturizm 5.Mototurizm 6.Veloturizm 7.Chang`ida yurish turizmi bo`yicha ko`rsatkichlar ijobiy bo`lib, umuman O`zbekistonda ushbu turizm bilan shug`ullanuvchilar jami soni 68 124 tani tashkil etib, shundan piyoda yurish turizmi bilan 56 812 kishi, tog` turizmi bilan esa 8 588 kishi, suv turizmi bilan 523 kishi, avtoturizm bilan 423 kishi, mototurizm bilan 421 kishi, veloturizm bilan 274 kishi, chang`ida yurish turizmi bilan 180 kishi shug`ullanib, yana bir g`or turizmi ro`yxatda bo`lsada, lekin bunda shug`ullanuvchilar va kadrlar hamda klublari haqida ma`lumot mavjud emas[15].

O`zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar mahalliy xalqning turmush tarzi, yashash sharoitlari, madaniyati, urf-odat va an`analari, asosiy xo`jalik va unda mahsulotni yetishtirish jarayonini bevosita kuzatish kabi qiziqishlarini, xohish istaklarini bajarishga sovet mafkuraviy nazorati ostida bo`lgan malakali gid-tarjimonlarni ham noqulay vaziyatga solib qo`ygan. 1972-yilda O`zbekiston SSR Inturist bo`limi tekshirilganda chet ellik sayyohlarning ekskursiya dasturlarida mahalliy aholi kundalik hayoti haqidagi ma`lumotlarning kamligi haqida bir qancha shikoyatlari qayd etilgan. Ushbu shikoyatlarning sababi tahlil qilinganda kamchilik dasturlarda emas, balki gidlar - ekskursiya gidlarining yetarli darajada malakasizligida ekanligi aniqlangan[16].1970 – 1980-yillar boshlarida mehmonxona va boshqa joylashtirish, sog`lomlashtirish vositalarini barpo etishda ijobiy tendensiya kuzatilib, Toshkentdagi Chorsu, O`zbekiston, Buxorodagi Zarafshon, Varaxsha, Buxoro mehmonxonalarini, mashhur Moxi xossa sanatoriyasi yoki Jizzaxdagi Zomin sanatoriyasi kabilar shular jumlasidandir. Albatta turizm va sayyohlik sohasidagi bunyodkorlik qurilishlarini amalga oshirishda shu davrdagi O`zbekiston rahbari Sharof Rashidovning tashabbuskorligi va homiyligi katta rol o`ynadi. Sh. Rashidov O`zbekistonda turizm rivojlanishini yangi bosqichga ko`tarish uchun Ittifoqning mashhur arxitektorlari va mahalliy arxitektorlari bilan O`zbekistondagi turistik markazlar loyihasi asosida Samarqand da 620 o`rinli, Buxoroda 420 o`rinli milliy dizayndagi turistik markazlar loyihalari 1980 – 1983-yillarda ishlab chiqilib, amalga oshirish jarayonlariga yetganda afsuski Sh. Rashidovning vafot etdi. Kelajakda milliy turizm uchun xizmat qilishi mo`ljallangan ushbu loyihalar qurilish uchun qabul qilinsada, lekin amalga oshmadi[17]. O`zbekistonda turizm industriyasini barpo etish borasida siljishlar bo`lsada, lekin soha va u bilan bog`liq bo`g`inlarda kadrlar masalasida hali ham muammolar – kadrlar yetishmovchiligi dolzarb bo`lib, buni 1975 yilda o`tkazilgan so`rovnomada qatnashgan 34,2 foiz turistlar transport va xizmat ko`rsatish sohasida malakali mutaxassislar va gid tarjimonlar yetishmasligini qayd etgani ham tasdiqlamoqda[18]. Turizm sohasidagi kadrlar masalasi sobiq Ittifoq davrida juda dolzarb muammolardan bo`lib, ayniqsa markazdan uzoqda joylashgan respublikalarda aynan O`zbekistonda ham bu masala yanada keskinroq edi. Jumladan buning birinchi sababi, O`zbekistonda turizm sohasi bo`yicha oliy va malakali kadrlar tayyorlaydigan maxsus oliy o`quv yurtlari faqat Toshkent va Samarqandda bo`lib, bu esa kadrlar taqchilligi muammosini bartaraf etishga imkon bermadi, ikkinchidan esa aynan sayyohlik sohasidagi kadrlar tayyorlashning zaruriy

talablaridan biri bo'lmish xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilmaganligi natijasida jahon standart lariga javob beradigan malakali kadrlar yetishmovchiligi yana ko'p yillar saqlanib qolishiga sabab bo'ldi. Ittifoq hukumati 1980 yil dekabrda "Mamlakatda turistik – ekskursiya ishlarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to'g'risida"gi qarorida[19] turizmni yanada takomillashtirish, kasaba uyushma, davlat organlari yoshlar va turistik tashkilotlar ning ish faoliyatini jadallashtirish, ommaviy turizmni yanada rivojlantirish, kadrlarni tayyorlash masalasi, turistik bazalar, bolalar turistik bazalarini yangi talablar asosida tashkil etish va chet el turizmi masalalarini tubdan yaxshilash choralari belgilandi.

O'zbekistonning tarixiy shaharlari Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent va Farg'ona vodiysini o'z ichiga olgan sayyohlik marshrutlarini tashkil etishning strategiyasi 1970-80-yillarda ishlab chiqilib, unda qadimiy shaharlardagi tarixiy va inqilobiy voqealarni aks ettiruvchi yodgorliklarni ekskursiya obyektlari sifatida namoyish etish zarurati belgilandi. Rejaga ko'ra, 20 kunlik "O'zbekiston bo'yab ekskursiya", 12 kunlik "O'zbekiston arxeologik yodgorliklari orqali" va 20 kunlik "O'zbekistonning qadimiy shaharlari" ekskursiyalari uchun yo'nalishlar loyihalari ishlab chiqildi. Har bir obyektни dasturga kiritish uchun maxsus pasport rasmiylashtirildi. Unda obyektning nomi, joylashgan joyi, tasviri, obyekt bilan bog'liq tarixiy manbalar va boshqa ma'lumotlar mavjud edi. Lekin bu davrda O'zbekistonda hali turistlarga ma'lum bo'lmagan tarixiy yodgorliklar va milliy hunarmandchilik ananalarni, xalqimiz turmsh tarzi va u bilan ming yilliklardan buyon yashab kelayotgan urf odatlarimizni namoyish etadigan, tanishtirishga imkon beradigan turistik yo'nalishlar, turmahsulotlar qisqasi yangi turistik resurslar majmualarini yaratish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilmagan. Jumladan sovetlar davrida O'zbekistonning mavjud turistik brendlar Buxoro, Samarqand, Xiva kabilarni jahonga keng miqyosda reklama va targ'ibot tashviqot qilish borasida hamkorlik aloqalari juda sust bo'lib, mavud aloqalar ham tor doirada Yevropaning sotsialistik davlatlari bilan qisman yo'lga qo'yilgan edi xolos. Afsuski O'zbekiston va uning turistik salohiyati haqida ma'lumotlar juda kam e'lon qilingan edi. Sohada aynan ichki turizm ham ahvol juda nochor edi. Nega Kavkazdagi sihatgohlarga yoki Qora dengiz bo'ylariga juda kam borishgan, yoki chet elga qilingan turistik marshrutlar va dam olishlarda O'zbekistonlik mahalliy millat vakillari juda kamchilikni tashkil etishgan kabi savollarga javob topish uchun Ittifoq respublikalarining milliy daromadlari va oylik ish haqlari statistikasiga murojaat qilamiz. 1981–1985-yillarda Ittifoq miqyosida ya'ni respublikalarda ijtimoiy mehnat unumdorligi oshishi hisobiga milliy daromadning ortishi (foizlarda) Ukrainada 100 %, Belorussiya 95 %, Estoniya 91 %, Gruziyada 76 %, Armaniston 65%, Qirg'iston 39 % va O'zbekistonda esa 13 % oshgan[20]. Ikkinchidan O'zbekiston aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligida bandligini hisobga olsak, kolxoz ishchilarining o'rtacha ish haqlari bo'yicha 1988 yilda Estoniyada 304 rubl, Litva 223 rubl, Armaniston 185 rubl, Qozog'istonda 199 rubl, Turkmanistonda 179 rubl va O'zbekistonda esa 149 rublni tashkil etgan[21]. Bunday past milliy daromad va kam ish haqi haqi bilan O'zbekiston fuqarolari dam olish yoki o'z sog'ligini tiklash uchun turistik sayohatga yoki sanatoriylarga borishga albatta iqtisodiy imkoniyatlari yo'l bermas edi. Shuningdek chet elga sayohatga chiqish juda qimmat edi. Shunday bo'lsada sohadagi bir oz ijobiy siljishlar ko'zga tashlanib, joylashtirish vositalari hamda ulardagi o'rinlar soni ko'payishiga imkon yaratildi. O'zbekistonda 1980 yilda turistik mehmonxona, bazalar, kemping va pansionatlar soni 31 ta, 1988-yilda esa 32 taga yetib, ulardagi o'rinlar soni mos ravishda 5,8 mingdan 8,5 mingtaga ko'payib, dam oluvchilar soni esa mos ravishda 559 mingdan bir million o'n besh ming kishiga turistik xizmatlar ko'rsatildi[22]. Sobiq Ittifoq davridagi ushbu statistikaning tahlil qiladigan bo'lsak, turizmni rivojlantirish imkoniyatlari O'zbekistonda keng miqyosli bo'lsada, afsuski sovetlar davrida bu sohaga katta foyda keltiradigan davlat iqtisodiyotining muhim sohasi sifatida alohida e'tibor berilmadi. Aynan shunday e'tiborsiz yondashuv mamlakatda turizm industriyasi rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Jumladan turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi turli subyektlar majmuasi ya'ni mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari hamda soha bilan bog'liq boshqa tarmoq korxonalarini qurilishi yoki tashkil etilishi jarayoni juda sust bo'lib, keng amaliy ishlar olib borilmagan. Bu sustkashlikning sababi esa Ittifoqda xalq xo'jaligi sohasini rivojlantirish uchun davlat byudjetidan mablag' ajratishning qoldiq prinsipiga amal qilinishi tufayli katta va istiqbolli loyihalar, sohani davrga mos rivojlantirishga xizmat qiladigan chora tadbirlari uchun mablag' defitsiti jarayoni kuzatildi. Bu esa ayniqsa O'zbekistonda yanada salbiy oqibatlariga olib keldi. Birinchidan mablag' kamligi tufayli milliy turizmning asosiy qiziqish manbasi bo'lgan tarixiy me'moriy obidalarni asrash, restavratsiya qilish hamda saqlab qolish borasidagi chora – tadbirlarni keskin kamayishiga, ikkinchidan esa bu davrdagi turistik sohaning juda cheklangan imkoniyatlari tufayli 1980 yillar oxirida mamlakatimizning qariyb yigirma million aholisidan atigi 5% i turistik xizmatlardan foydalana olgan xolos. Sobiq Ittifoq davrida 15



ta mustamlaka davlatlar ichida aholisi soni bo'yicha Rossiya va Ukrainadan so'ng uchinchi o'rinda bo'lgan O'zbekiston turizm rivoji borasida esa ancha orqada bo'lib, butun ittifoqning turistik mehmonxonalar, bazalar, lagerlar va pansionatlar umumiy sonidagi ulushi atigi 3% ni va dam oluvchilar soni bo'yicha ham 3% lik[23] ko'rsatkich bilan bu borada o'z salohiyatidan ancha past natijani qayd etgan.

Natijalar. Sovet davrida turizm va ekskursiyalar tizimi hech qachon ijtimoiy – iqtisodiy tashkilot sifatida mustaqil faoliyat ko'rsatmadi. Aksincha kommunistik mafkuraning xizmatchisiga aylantirilib, sohaning ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi muhim funksiyasiga e'tibor berilmadi. Shu jumladan O'zbekistonda ham turizm sohasining imkoniyatlari yuqori bo'lsada, ammo samarali foydalanilmadi. 1950 – 1990-yillarda turizm sohasidagi muammo va kamchiliklar Ittifoq respublikalarida, jumladan O'zbekiston va uning turistik viloyatlarida esa yanada ko'proq darajada namoyon bo'lgan. Bular quyidagilardan iborat edi:

- Markaziy Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston sobiq Ittifoq nazarida birinchi navbatda xom ashyo manbai sifatida e'tiborga olinib, xalqning ming yillar davomida yaratgan tarixiy madaniy yodgorliklari, obidalari esa ta'mir talab va hatto restavratsiyaga muhtoj bo'lsada afsuski juda kam e'tibor va mablag' yetishmasligi boisdan obodonlashtirilmadi.

- turistlarga shahar bo'ylab mustaqil harakat qilganda taksi haydovchilarning insofsizligi va yo'l kiraning yuqori narxlari;

- metro bekatlarida hojatxonaning mavjud emasligi, yengil nonushtaga sharoit yo'qligi;

- hammomlarning yetarli emasligi, issiq suv ta'minotidagi uzilishlar;

- shaharda kanalizatsiya yo'qligi, oqova suvlarni olib tashlash uchun maxsus mashinalar yo'qligi[24];

- mehmonxonalartamaddixonalaridamenuyoyo'qligihamdama'vhum sabablarga ko'ra sayyohlarning pasportlari vaqtincha olib qo'yilishi va sanitariya-gigiyena vositalarining yo'qligi, liftlarning tez – tez ishdan chiqishi;

- temir yo'l transportida servis xizmatining to'la shakllanmaganligi va sifati pastligi;

- "Inturist" tomonidan mehmonxonalarda xona va aviachiptalarni bron qilish majburiyatlari tez-tez buzilishi;

- ekskursiya dasturlarida mahalliy aholining kundalik hayoti to'g'risida ma'lumotlar yo'qligi, haqiqiy kundalik hayotni yashirish orqali soxta bo'rtirilgan sovet hayotini namuna qilishda turizm mafkuralar kurashi vositasiga aylantirilishi edi.

- malakali mutaxassislar va gid tarjimonlar yetishmasligini (1975-yilda o'tkazilgan so'rovnomada qatnashgan 34,2 foiz turistlar transport va xizmat ko'rsatish sohasida malakali mutaxassislar va gid tarjimonlar yetishmasligini qayd etgani ham tasdiqlamoqda[25]).

- O'zbekistonda turizm sohasi bo'yicha oliy va malakali kadrlar tayyorlaydigan maxsus oliy o'quv yurtlari faqat Toshkent va Samarqandda bo'lib, bu esa kadrlar taqchilligi muammosini bartaraf etishga imkon bermadi[26].

- 1989 – 1990-yildagi millatlararo munosabatlarning taranglashuvi[27].

- ekskursiyalarni tashkil etish imkoniyatlaridan amalda foydalanilmaganligi, ekskursiya guruhlarini tashkil qilish uchun ish haqi o'zgarmaganligi, kamligi[28].

- Turizm va ekskursiyalar tashkilotining mustaqil faoliyatiga yo'l qo'yilmaganligi(dastlab sport va fizkultura, so'ngra kasaba uyshmalari ittifoqi boshqaruvida)

- 1987 – 1990-yillardada iqtisodiy ahvolning og'irligi, o'tish davridagi qiyinchiliklar tufayli turizm va ekskursiyalar sohasi hamda u bilan bog'liq tarmoqlarda davlat yoki kooperativ mulkining talanishi yoki moliyaviy jinoyatchilik holatlari soni ko'paygan[29].

Shu bilan birga 1950 – 1990-yillarda O'zbekistondagi turizm sohasi faqat muammo va kamchiliklardan iborat bo'lmasdan balki, mintaqaning keying rivoji uchun ijobiy ahamiyati bo'lgan yutuq va o'zgarishlar ham amalga oshirildi. Jumladan:

1. O'zbekistonda turizmning velosiped va piyoda yurish turi bo'yicha ananaviy ommaviy yurishlar hamda sayohatlar boshlandi.

2. Turizm bo'yicha oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash maqsadida Samarqandda dastlabki turizm va ekskursiya bo'yicha universitet tashkil etildi.

3. Dastlabki turistik bazalar va komplekslari (Chimyon) tashkil topib, ulardagi o'rinlar soni ko'paydi.

4. Yoshlar va bolalar turizmi tashkil topib, bolalar sog'lomlashtirish lagerlari vujudga keldi[30].

5. Dastlabki zamonaviy mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari barpo etildi (Toshkent

– hozirgi Latte City Hotel Tashkent Palace, O'zbekiston, Chorsu, Buxoroda esa Buxoro, Zarafshon, Varaxsha, Guliston mehmonxonalarini barpo etilgan).

6. O'zbekistonda hozirgi kungacha davom etib kelayotgan ko'p kunlik sayohat marshrutlari yaratilib, 20 kunlik "O'zbekiston bo'ylab ekskursiya", 12 kunlik "O'zbekiston arxeologik yodgorliklari orqali" va 20 kunlik "O'zbekiston bo'ylab" ekskursiyalari uchun yo'nalishlar loyihalari ishlab chiqildi hamda amalga oshirilishi[31].

Turizm va ekskursiyalar sohasi rivojlanishida ham sobiq Ittifoq markazi o'z manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib, ayniqsa chekka hudud bo'lgan O'zbekistondagi turistik salohiyat kuchli bo'lsada, ushbu hududda sohaga tegishli infratuzilma obyektlarini jadallik bilan barpo etish chora – tadbirlari paysalga solinib, hatto soha kelajagi uchun ahamiyatli bo'lgan loyihalar ham amalga oshirilmadi[32]. 1970 yilda sobiq Ittifoq bo'yicha turistik mehmonxona, bazalar va boshqa joylashtirish vositalari soni 592 ta bo'lsa, 1980 yilda 963 ta, 1987 yilda 983 ta, o'rinlar soni 459 mingtaga ko'paygan holatda O'zbekistonda 1970 yilda 8 ta, 1988 yilda 32 tani (ba'zi manbalarda 36 ta) tashkil etib, undagi o'rinlar soni 8500 tani tashkil etgan[33]. Ya'ni Ittifoqdagi jami mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarining atigi 3,3 % ini, ulardagi jami o'rinlar sonining 1,9 % ni tashkil etishi O'zbekistonda olib borilgan mustamlakachilik siyosatining turizm sohasidagi salbiy ta'sirining natijasi bo'ldi. Ushbu tahlilga ko'ra, asosiy turizm rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha 15 ta Ittifoqdosh davlatlar orasida Rossiya, Ukraina, Gruziyadan so'ng to'rtinchi o'rinda bo'lgan O'zbekistonda turizm sohasida salohiyat va imkoniyat katta bo'lsada, lekin soha industriyasi asosan Rossiya va Ukrainada rivojlantirilgan. Holbuki, 1980 yillar davomida O'zbekistonda xorijiy va ichki turizm sifat hamda miqdor jihatdan ham o'sish tendensiyasini namoyish etib, bu davrdagi ichki va mintaqaviy turizmning faol ko'rsatkichi 1986 yilda bo'lib, joriy yilda turistik mehmonxona, bazalar, kemping va pansionatlar soni 23 ta, undagi o'rinlar soni 8000 tani tashkil etgan holda, jami dam olganlar soni bir million qirq olti ming kishini tashkil etgan[34]. Jumladan quyidagi jadval statistikasi orqali O'zbekiston respublikasida mehmonxona, sanatoriy va boshqa dam olish maskanlarida dam oluvchilar va davolanganlar sonining(ming kishi) o'sish tendensiyasini kuzatamiz (2- jadval\*).

Yillar bo'yicha	1980	1985	1986	1987	1988	1989	1990
Mehmonxona, va sanatoriylardan foydalanganlar (jami kishi)	811,3	1241,7	1452,0	1459,1	1497,1	1474,4	1603,8
Sanatoriyalarda(o'smirlar va bolalar)	95,9	140,7	154,2	156,3	170,5	164,0	175,0
Sanatoriya – profilaktoriyalarda	76,8	133,0	141,8	164,6	180,4	186,1	187,8
Kurort poliklinikalarida	4,3	5,3	5,0	5,9	7,8	6,6	8,6
Dam olish uylari va pansionatlarda	9,2	56,6	80,2	83,6	91,8	74,2	72,3
Bazalar va boshqa dam olish mussasalarida	16,2	18,1	24,8	22,7	31,6	26,5	24,1
<b>Turistik mehmonxonalar va bazalarda</b>	<b>58,9</b>	<b>888,0</b>	<b>1046,0</b>	<b>1026,0</b>	<b>1015,0</b>	<b>1017,0</b>	<b>1136,0</b>

2- jadval - O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining 1990 yilgi statistik yilnomasi asosida tuzilgan[35].

Ushbu statistik jadvalga ko'ra, 1950 – 1990 yillar oralig'idagi eng yuqori ko'rsatkich ichki va mintaqaviy turizm bo'yicha 1990 yilda yuz berib, unga ko'ra mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalarida hammasi bo'lib jami 1136000 kishi dam olib turistik xizmatlardan foydalangan bo'lsa, sanatoriy va boshqa dam olish maskanlarida jami 467,8 ming kishi davolanib dam olishgan. Umuman olganda 1990 yilda O'zbekistonda turistik va sog'lomlashtirish xizmatidan foydalanganlar soni jami 1603,8 ming kishini tashkil etgan. 1990-yilda sanatoriy-kurort dam olish maskanlari, pansionatlar va dam olish markazlarida, turistik marshrutlar va bazalarda 2017,3 ming kishi davolanib, dam oldi. Turli kasb egalari bo'lgan ishchilar va ularning oila a'zolari, shundan 1603,8 ming nafari uzoq muddatli davolanish va dam olishdan, 413,5 ming nafari bir yoki ikki kunlik dam olishdan foydalangan. Ekskursiya ishtirokchilari soni 1980 yildagi 4075 ming kishiga nisbatan 1990 yilda 7260 ming kishini tashkil etdi. 900 mingga yaqin bolalar va o'smirlar yozda pioner va maktab lagerlarida, ekskursiya va turistik bazalarda dam oldilar



yoki bolalar bog'chalari joylashgan yozgi muassasalarga borib dam oldilar[36]. Demak O'zbekistonda 1980 yilga nisbatan 1990 yilda ekskursiya ishtirokchilari soni ko'payib, jumladan davlat tomonidan yoshlarning dam olishlari uchun katta e'tibor berilganligini statistika ham tasdiqlamoqda. Lekin bu davrni og'ir va ziddiyatli ijtimoiy – iqtisodiy hayotini tahlil qilganimizda, barbod bo'lgan “qayta qurish siyosati”, markaz tomonidan juda bir biriga tobe qilib qo'yilgan iqtisodiyotlardagi inqiroz va xo'jalik hamda iqtisodiy aloqalarning barbod bo'lishi jarayonining barcha sohalari taraqqiyotidagi salbiy ta'siri kuchli bo'lishiga qaramasdan turizm sohasida sekinlik bilan bo'lsada o'zgarishlarga yuz berayotgan edi. Jumladan O'zbekistonda 1980 yillar va 1990 yil turizm, dam olish va sog'loimlashtirish sohasidagi maskanlarning soni o'zgarib tursada, lekin ulardagi o'rin joylari soni faqatgina ko'payib borgan. 1990 yilda sanatoriy va dam olish maskanlaridagi umumiy o'rinlardan 6 mingtasi oilalar uchun, 1,2 mingtasi esa bolali ota-onalarni davolash uchun mo'ljallangan edi. 1990-yilda O'zbekistonda 5,4 ming o'ringa mo'ljallangan 111 ta bir-ikki kunlik dam olish maskanlari ham mavjud edi[37]. O'zbekistondagi sanatoriy-kurort davolash va dam olish muassasalari tarmog'i aholining ehtiyojlarini umuman qondira olmas edi. O'zbekistonning 1990 yildagi 20 322 ming kishilik aholisidan atigi 1,6 million kishi davolanish va dam olish huquqidan faol foydalana olgan. Bu esa umumiy aholining 8 foizini tashkil etadi xolos. Ayniqsa respublikada pulli xizmatlarning tuzilishida jami 100% lik ko'rsatilgan xizmatlar tarkibida sayyohlik va ekskursiya xizmatlari 1989 yilda 4,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1990 yilda esa 4,6 % ni tashkil etdi. Jumladan sanatoriy – kurort va sog'lomlashtirish sohasida esa 1989 yil 1,6 %, 1990 yilda ham 1,6 %, jismoniy tarbiya va sport sohasida 1989 yil 0,4 %, 1990 yilda 0,3 % ni tashkil etib, bu davrlar oralig'ida aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish darajasi pasayganligi aks etmoqda. Aholining turli turdagi pullik xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishdagi mavjud nomutanosibliklarga barham berilmagan. Umumiy hajmning uchdan ikki qismidan ko'prog'i maishiy(40,1%), uy-joy kommunal(21,3%) va transport(39,8%) xizmatlariga to'g'ri keladi. Ayniqsa turistik korxonalarda pullik xizmat ko'rsatish sohasi yetarli darajada rivojlanmagan. Aholi jon boshiga pullik xizmatlarning ayrim turlari hajmi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, jumladan turistik ekskursiya xizmatlari O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga 6,4 rublni tashkil etib, bu borada Toshkent shahri 19,0 rubl, Samarqand viloyati 8,2 rubl, Buxoro viloyati bo'yicha esa 6,9 rublni tashkil etib, qolgan viloyatlar esa respublika darajasidan past ko'rsatkichni qayd etishgan[38]. Turizm va ekskursiyalar sohasida xizmat ko'rsatishning pullik turlarini rivojlangan davlatlarga nisbatan juda kam bo'lib, hatto yangi xizmat ko'rsatish turlarini o'zlashtirish darajasi ham juda sust bo'lib, bu esa respublika turizmining sobiq sotsialistik tuzum davridan qolgan salbiy xususiyatlaridan biri edi. Bu esa ushbu sohada xo'jalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida narx navoni belgilash, zamonaviy boshqaruv joriy etish, kadrlar masalasi va o'z mahsulotlarini targ'ibot tashviqoti kabi masalalarida ko'plab muammolar mavjudligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, 1989-1991 yillarda O'zbekiston turizm sohasi yillar davomida olib borilgan noto'g'ri siyosat tufayli chuqur inqirozga yuz tutdi. Bu inqirozning sabablari birinchidan sobiq Ittifoq davrida xalq xo'jaligining boshqa barcha sohalari kabi turizm va ekskursiya ishlari ham markaz tomonidan boshqarilishi va respublikalardagi mahalliy turizm tashkilotlarining mustaqil harakat qila olmasligi mahalliy hududlarda samarali va istiqbolli rejalar, yangi turistik mahsulotlar, yangi turyo'nalishlar yaratish hamda xorijiy hamkorlar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqalar o'rnatish imkonini bermagan, ikkinchidan esa turizm va ekskursiya ishlaridan kelayotgan daromadlarining bir qismi mahalliy hudud g'aznasiga tushayotgan bo'lsada, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan turizmning iqtisodiy va ijtimoiy samarador faoliyatini tan olib, mablag'larni sohaning respublika yoki viloyat hududida keng rivojlantirish uchun yo'naltira olmasligi, ya'ni qisqasi turizmni hududiy rivojlantirishga e'tibor berilmaganligi, uchinchida turizm sohasi sovet mafkurasining xizmatchisiga ya'ni tenglar jamiyati mafkurasi bo'lmish kommunistik jamiyatni targ'ib qilish quroliga aylantirilib, uning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy roli ikkinchi darajaga tushirib qoldirilishi, to'rtinchidan jahonda turizmni rivojiga asosiy omil bo'lgan xususiy sektor faoliyatiga yo'l berilmaganligi, beshinchidan O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning va sayyohlarni jalb etishning omili bo'lgan tarixiy – madaniy yodgorliklar, masjid va maqbaralarning ko'pchiligi xaroba yoki butunlay yo'qolib ketish holatiga tushib, ularda obodonchilik hamda ta'mirlash chora tadbirlarining tizimli yo'lga qo'yilmaganligi, oltinchidan sobiq Ittifoq davrida xalq xo'jaligini markazlashtirilgan rejalashtirish va direktiv (yuqori hokimiyat organlari tomonidan berilgan va bajarilishi majburiy sanalgan rasmiy yo'l-yo'riq, dastur, reja, ko'rsatma) boshqaruv usuli o'zini oqlamadi. Bunday boshqaruvda asosan ustuvor sohalarga (harbiy, metallurgiya, neft va gaz kabi

sohalarga) katta e'tibor va mablag' ajratilib, lekin 1980 yillar davomida iqtisodiy samaradorligi ko'tarilib borayotgan turizm sohasi esa muhim strategik sohalar qatoriga kiritilmagan. Shuningdek hozirgi kundagi kabi yagona turistik siyosat hamda turistik salohiyati yuqori bo'lgan viloyatlar uchun aniq va tizimli davlat dasturlari, rejalari va konsepsiyalari ishlab chiqilmaganligi, yettinchidan sobiq Ittifoq hududida boshqaruvning sotsialistik shakli o'rnatilganligi tufayli turizm va ekskursiya sohasi rivojlanmadi. Chunki turizm rivojiga xizmat qiladigan zamonaviy yondashuv va raqobat, xalqaro hamkorlik hamda sohadagi xususiy tadbirkorlikka ya'ni nodavlat turizm tashkilotlari faoliyatiga yo'l berilmaganligi bilan ham ushbu davr tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ (References):

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi qonuni // Xalq so'zi , №147(7377), 2019 yil 19 iyul .
2. Jahon Sayyohlik Tashkiloti- bosh qarorgohi Ispaniyaning poytaxti Madridda joylashgan bo'lib, 1975 yil 1-noyabrda tashkil etilgan.
3. <https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>
4. <https://wtcc.org/Research/Economic-Impact>
5. Г.Усискин «Очерки истории Российского туризма» Москва - Санкт-Петербург. "Герда», 2000. Б-51
6. И. Б. Орлов, А. Д. Попов. Сквозь «железный занавес». Руссо туристо: советский виэздной туризм, 1955—1991 Издательский дом Высшей школы экономики ,Москва -2016.Б-302
7. Р.Абдумаликов, Т.Холдоров. Туризм "Ўқитувчи" Тошкент-1988. Б-20.
8. М.В.Соколова. История туризма."Академия" Москва—2008, Б-294-296.
9. Ю.С. Путрик. История туризма. Федеральное агентство по туризму.Москва-2014. С-203.
- 10.<http://istmat.info/node/21341>
- 11.В. Э. Багдасарян, И. Б. Орлов "Советское "Зазеркалье" (Иностранный туризм в СССР в 1930 – 1980 – е годы) Москва 2007 .С-161.
- 12.И.А.Колупанова. Проблемы становления массового туризма в СССР в 1960–1970-е годы .Вестник ТГПУ (ТСПУ Буллетин). 2016. 9 (174) С-54-55.
- 13.Р.Абдумаликов, Т.Холдоров. Туризм "О'қитувчи" Toshkent-1988. В-24.
14. О' sha joy. В-32.
- 15.Р.Абдумаликов, Т.Холдоров. Туризм "Ўқитувчи" Тошкент-1988. Б-35.
- 16.В. Э. Багдасарян, И. Б. Орлов "Советское "Зазеркалье" (Иностранный туризм в СССР в 1930 – 1980 – е годы) Москва – 2007 .С-152-153.
- 17.[https://tatlin.ru/articles/turistskie\\_centry\\_v\\_uzbekistane](https://tatlin.ru/articles/turistskie_centry_v_uzbekistane)
- 18.М.Ш. Mansurov. Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanish jarayonlari va holati (1980-2018 y). Avtoreferati. Toshkent – 2020. В-12.
- 19.Р.Абдумаликов, Т.Холдоров. Туризм "О'қитувчи" Toshkent-1988. В-44.
- 20.Народное хозяйство СССР в 1988 г. статистический ежегодник. Москва.1989. ©Издательство «Финансы и статистика». С-16
- 21.Народное хозяйство СССР в 1988 г. статистический ежегодник. Москва.1989. ©Издательство «Финансы и статистика». С-80-83.
- 22.Народное хозяйство СССР в 1988 г. статистический ежегодник. Москва.1989. ©Издательство «Финансы и статистика»,С-239.
- 23.Народное хозяйство СССР в 1988 г.статистический ежегодник. Москва.1989. ©Издательство «Финансы и статистика»,С-20.
- 24.В. Е. Багдасарян, И. В. Орлов "Советское "Зазеркалье" (Иностранный туризм в СССР в 1930 – 1980 – ye godi) Moskva. 2007.С-161.
- 25.М.Ш. Mansurov. Farg'ona vodiysida turizmning rivojlanish jarayonlari va holati (1980-2018 y). Avtoreferati. Toshkent – 2020. В-12.
- 26.Р.Абдумаликов, Т.Холдоров. Туризм "О'қитувчи" Toshkent-1988. В-24-25.
- 27.О'zR МА. 141-М- Fond. 1-Ro'yxat.12-Ish 36-varoq.
- 28.О'zR МА. 141-М- Fond. 1-Ro'yxat.12-Ish 39-varoq.

29. O'zR MA. 141-M- Fond. 1-Ro`yxat. 12-Ish 182-195-varoq.
30. R. Abdumalikov, T. Xoldorov. Turizm "O`qituvchi" Toshkent-1988. B-24-38.
31. G. Egamberdieva. O'zbekistonda turizm sohasini isloh qilish bosqichlari (XX asrning ikkinchiyarmi – XXI asrning birinchi choragi. "FarDU. ILMIIY XABARLAR – NAUCHNIY VESTNIK. FerGU" Farg'ona, 2020/№2. B-89-94.
32. Sh. Rashidov O'zbekistonda turizm rivojlanishini yangi bosqichga ko'tarish uchun Ittifoqning mashhur arxitektorlari va mahalliy arxitektorlari bilan O'zbekistondagi turistik markazlar loyihasi asosida Samarqand da 620 o`rinli, Buxoroda 420 o`rinli milliy dizayndagi turistik markazlar loyihalari 1980 – 1983 yillarda ishlab chiqilib, amalga oshirish jarayonlariga yetganda afsuski Sh. Rashidovning vafot etdi. Kelajakda milliy turizm uchun xizmat qilishi mo`ljallangan ushbu loyihalar qurilish uchun qabul qilinsada, lekin amalga oshmadi ([https://tatlin.ru/articles/turistskie\\_centry\\_v\\_uzbekistane](https://tatlin.ru/articles/turistskie_centry_v_uzbekistane)).
33. Narodnoe xozyaystvo SSSR v 1988 g. Statisticheskii yejegodnik. Moskva. 1989. ©Izdatel'stvo «Finansi i statistika». S-239.
34. Narodnoe xozyaystvo SSSR v 1986 g. Statisticheskii yejegodnik. Moskva. 1987. ©Izdatel'stvo «Finansi i statistika». S-603.
35. Narodnoe xozyaystvo Uzbekskoy SSR v 1990 g. Statisticheskii yejegodnik. Toshkent. «Uzbekistan» 1991. S-143.
36. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический ежегодник. Тошкент. «Узбекистан» 1991. С-143.
37. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический ежегодник. Ташкент. «Узбекистан» 1991. С-143.
38. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический ежегодник. Ташкент. «Узбекистан» 1991. С-79-80.